



BUG`DOYNING OZIQLANISH MAYDONIGA QARAB DON YIRIKLIGIGA VA SIFATIGA TA`SIRI

Nurjanov Allabergan

Urganch davlat universiteti b.f.n., dotsent

Matyoqubova Maftuna

Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistr talabasi

Matyoqubova Asalxon

Urganch davlat universiteti 206-Biologiya guruhi talabasi

Annotatsiya: Xorazm viloyatida kuzgi bug'doyning hosildorligi va sifatini aniqlashda oziqlanish maydoning ahamiyati va agrotexniga qoidalarini o'z vaqtida qo'llashga yo'naltirilgan olib borilgan tajribamiz.

Kalit so'zlari: bug'doy, qattiq bug'doy, don, ekish usuli, organik o'g'it, oziqlanish maydoni, hosil, sifat, agrotexnika, ildiz.

Bug'doy (*Triticum*) — g'alladoshlar oilasiga mansub o'tsimon o'simliklar turkumi; eng qadimgi va hozirgi dunyoning ko'pgina mamlakatlarda ekiladigan asosiy don ekini. Somatik hujayralarida xromosomalarning soniga ko'ra farq qiladigan 3 (diploid, tetraploid, geksaploid) qatorga kiradigan 30 ga yaqin yovvoyi va madaniy turlari bor. Jahon dehqonchiligida asosan yumshoq bug'doy yoki oddiy bug'doy (*T. aestivum*, *T. vulgare*) va qattiq bug'doy (*T. durum*) ekiladi. Qolgan turlari kam ekiladi yoki butunlay ekilmaydi.

Bug'doy Old va O'rta Osiyo mamlakatlarida miloddan avvalgi 7—6 ming yilliklarda ma'lum bo'lgan. 17-asrdan boshlab Shimoliy Amerikada ekila boshladi. Bug'doy yer sharida shim.da 66° shahri kenglikda (Shvesiya), Rossiyada esa tajriba maydonlarida $76^{\circ}44'$ shahri kenglikda (Murmansk viloyati); janubida Avstraliya, Janubiy Amerika, Afrikaning janubi chegaralarigacha ekiladi. Jahonda bug'doy ekiladigan maydonilar 250 mln. gettarga yaqin bo'lib, yetishtiriladigan donning qariyb 30% bug'doyga to'g'ri keladi (o'rtacha 360 mln. t dan ortiq). Asosiy g'allakor mamlakatlar — Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, AQSH, Hindiston, Kanada. O'zbekistonda 90-yillarning boshidan respublikaning g'alla mustaqillagini ta'minlash uchun bug'doy ekiladigan maydonlar kengaytirildi.



Bug'doy bir yillik osimlik bolib, ildizi popuk ildiz sistemasiga ega ya'ni yerning unumdar qatlami 30 sm gacha boradi. Tajribamizdan shuni ko'rishimiz mumkunki bug'doy o'simligini ildizi juda mayda tomirlanib ketgan. Rangi oqish, sarg'ish, toq sarg'ish rangalarda boladi rivojlanish fazalariga qarob. Tajribamizdan ma'lumki ildiz o'simlik uchun juda muhim. Ildiz orqali oziqlanadi, muvozanatini saqalaydi, o'sadi rivojlanadi, asosiysi yetilib hosil beradi.

Ozbekiston Respublikasida har bir viloyatning iqlim sharoiti har xil shuningdek Xorazm viloyati ozining jazirama issiqi va ayozli sovuqi bilan ajralib turadi.

Xorazm viloyatida bug'doy asosan kuzda ekiladi, bug'doyning qattiq bug'doy (T. durum) turi va sug'orma dehqonchilik yordamida sug'oriladi. Xorazm viloyatida bug'doy ikki xil usulda sochma va qatorlab selka yordamida ekiladi.

Xorazm viloyatida bug'doyning Tanya navi ustida tajriba olib bordik. Tajriba qo'yilgan hudud Urganch tumani Komollidin fermer xo'jaligi va Xonqa tumanidagi Yo'ldosh fermer xo'jaligi.

Urganch tumanida ekilgan bug'doy maydonimiz organik og'itlar bilan boyitilgan tuproq maydalanib struktura holatiga keltirilgan. Xonqa tumanida ekilgan bug'doy maydonimiz ham organik og'itlar bilan boyitilgan bundan tashqari mineral og'itlar ham sepilgan. Urganch tumanida 15 oktabr kuni 1g maydoniga selka yordamida 116 kg bug'doy urug'i ekildi,. Xonqa tumanida 17 oktabr kuni 1g maydoniga 250 kg bug'doy urug'i sochma holatida ekildi. Ikkala fermer xo'jalikda ham olib borilgan agrotexnik ishlar, mineral og'itlar bilan oziqlantirish, sug'orish ishalri o'z vaqtida olib borilgan. Hosil yetilib, iyun oyining boshida yig'ib terib olindi. Ikkala fermer xo'jalikdan olingan na'munalardan shuni ko'rishimiz mumkinki, Urganch tumani Komollidin fermer xo'jaligidagi bug'doy donni o'zing yirikligi, keleykovinasi elastikliligi bilan ildizining ko'plab tomirlanganligi, hosilli 1g 70 t yetganligi bilan sochma usulda ekilgan bug'doy maydonidan ustinlik qildi. Xonqa tumanidagi Yo'ldosh fermer xo'jaligida ekilgan sochma usulda ekilgan bug'doy maydoni natijalari unchalik o'zini oqlamadi. Chunki bu yerda urug' sarfi, minral og'itlarga ketgan sarf xarajat, donini har xiligi, kleykovinasini elastikliligi pastligi, ildiz tizimi tomirlanishi kamligi, hosilning 1g 50 t olinganligi.



Tajribamizdan shuni ko'rishimiz mumkunki bug'doyning ildiz tizimi, uning donini sifati va yirikligi ta'siri yuqoriligi. Bug'doy uchun nafaqat boshqa o'simliklar uchun ham oziqlanish maydoni muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntirib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Pezidentining 2014 yil 12-iyun "Ekinbop urug'lar yetishtirish maqsadida ekilgan navli qishloq xo'jalik aprobatsiya qilish tartibi to'g'risida " gi 02-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Pezidentining 2008 yil 28-mart "Oziq-ovqat bug'doyining sug'urta fondini g'amlash, saqlash, yangilash va undan foydalanish tartibi to'g'risida " gi 53-sonli qarori
- 3.X. N. Ataboyeva O'simlikshunoslik Toshkent 2006 yil
- 4.X. N. Ataboyeva, Xudayqulov O'simlikshunoslik Toshkent 2018 yil
- 5.A. Radjabov "Ilmiy tatqiqot asoslari" 2012yil